E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

XIX ASR TEATRI

(o'zbek teatr maktabi)

Sultonov Dostonbek O'zDSMI FMF
"Dramatik teatr rejissorligi" 2-bosqich talabasi
sultonovdoston07@gmail.com

Annotatsiya:

ushbu maqolada o'zbek teatrlarining ilk namoyondalari va teatr tarixitondagi namoishlari va teatr, spektal haqida judaham qiziqarli ma'lumotlar keltrilgan

Kalit so'zlar:

san'at, teatr, rejissura, aktyor, istedod, kasb, sistema

1913-yil ulug' o'zbek ma'rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniy tashabbusi bilan «Turon oqartuv jamiyati» tasarrufida birinchi o'zbek teatri tashkil topdi. 0 'sha davrdan boshlab yurtimizda teatr san'atiga alohida san'at sifatida qaralib, uning rivoji uchun ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Binobarin, teatming muhim bo'g'inlari hisoblangan aktyorlik, rejissyorlik, dramaturgiya va boshqa ko'plab mutaxassisliklar fan sifatida o'rganilib, takomillashib bordi.

Ma'lumki, har bir kasb aniq individual qonun va qoidalar majmuyidan tashkil topadi. Shu bilan birga, ijod bilan bog'liq bir qator kasblar ham mavjud. Biroq ayrim kishilarda aktyorlik uchun o'qish shart emas, tabiatan tug'ma iste'dod bo'lsa kifoya degan fikrlar mavjud edi. Ammo aktyor uchun tug'ma iste'dod talab etilishi mutlaqo to'g'ri. Chunki har qanday iste'dodni charxlash, sayqallash zarur. Bu borada aktyorlik kasbiga oid maxsus bilim va ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi. Zero, aktyorlik kasbini egallash uchun san'at maktablarida mutaxassislik sirlarini o'rganish zaruriy ehtiyoj hisoblanadi. Avvallari, ya'ni XX asrgacha - aktyorlik mahorati fan sifatida qaror topgunga qadar, bo'lajak aktyorlar biror asar qahramonini, ma'lum bir rolni ijro etish usullarini o'rganar edi. Natijada bunday yo'l bilan ta'lim olgan talabalaming aksariyati yuzaki, baland parvoz tashqi shtamplami o'zlashtirib olar va ijodlarini mana shu asosda davom ettirardilar. Bugungi kunga kelib, aktyorlik mahorati fan sifatida tan olinib, san'at maktablarida o'qitib kelinmoqda. Xususan butun umrini teatr san'atiga, aktyorlik mahorati sirlarini o'rganishga bag'ishlagan va umrining so'nggi damlarida o'z bilim, tajribalarini bir tizimga jamlagan K. Stanislavskiyning aktyorlik maktabi - 3«sistema»si ko'pgina xalqlaming san'at o'quv yurtlari uchun dastur bo'lib xizmat

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

qilmoqda. Shunga qaramay, K. S. Stanislavskiyning o‘zi ham «sistema»ni benuqson deb bilmagan va umrining so‘ngiga qadar uning ustida qayta-qayta ishlashdan to‘xtamagan. 0 ‘zbek aktyorlik maktabi ham ana shu «sistema»dan ozuqa oladi va, ayni paytda, o‘z uslubi, milliy xususiyatiga ega maktab hisoblanadi. Shuning uchun san’at maktablaridagi o‘qitish jarayoniga xalqimizga xos illiylikdan kelib chiqib yondashish zarur. Hozirga qadar aktyorlik mahoratiga oid nazariy va amaliy mashqlar to‘plami, bir qator qo‘llanmalar yaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, aktyorlik mahorati pedagogikasi rivojida muhim rol o‘ynaydi, albatta. Darhaqiqat, o‘zbek aktyorligi maktabining kelajagi bevosita va bilvosita ana shu magistrlar, ya’ni bo‘lajak aktyorlik mahorati o‘qituvchilariga bog‘liq. Ana shulami inobatga olgan holda, bir necha yillik o‘z pedagogik tajriba va izlanishlarimiz samarasi o‘laroq, drama va kino aktyorligi mahorati magistrlari uchun ushbu darslik yaratildi.

Zamonaviy aktyorlik mahoratini o‘qitish tizimi bosqichma bosqich tarzda, soddadan murakkablikka tomon rivojlanib boradi. Aktyorlami tarbiyalashning dastlabki osqichi, awalo, talabalami san’at maktabiga qabul qilishni oqilona va sinchkovlik bilan tashkil etishdan boshlanadi. Bu esa pedagogning keyingi ijod jarayoni qanday kechishiga, mahoratli artistlami yetishtirish yo‘lida muvafaaqiyat qozonishi yoki aksincha natija yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Ilk darslar o‘quv yurtiga endigina qadam qo‘ygan talabaga teatr, sahna orti mashaqqati, aktyorlik san’atidagi iyinchilik va afzalliklar borasida dastlabki bilimlarni berishga bag‘ishlanishi kerak. So‘ng asta-sekin asosiy bosqichga o‘tiladi. Bu bosqich sahna nazariyasi, aktyorlik texnikasi hamda pyesa va rol ustida ishlashni o‘rganishdan iborat. Chunki sahna nazariyasi san’at maktabiga ilk qadam qo‘ygan talabaning aktyorlik kasbi mahorati irlariniongli ravishda o‘rganishiga imkon yaratadi. Aktyorlik kasbida nazariya muhim o‘rin tutadi.

Ushbu sahna nazariyasini o‘rganish har qanday professional aktyor uchun zarur. Har bir fanda nazariya bevosita amaliyotga yo‘l ochganidek, aktyorlik mahoratida ham nazariy asoslar amaliyot bilan bog‘lanib, to‘ldirib boriladi. Aktyordan sahna nazariyasini o‘qib-o‘rganish talab etiladi, shuningdek, aktyorlik texnikasini o‘zlashtirish, puxta egallash lozim bo‘ladi. Bunga esa ma’lum amaliy mashqlar asosida bosqichma bosqich erishib boriladi. Aktyorlik texnikasining asoslari dastlab birinchi va ikkinchi kurslarda chuqur o‘rgatilishi lozim. So‘ngra darslar sekin-asta pyesa va rol ustida ishlash, sahna obrazini yaratish usullarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Ta’kidlash kerakki, aktyorlarni arbiyalashda faqat san’at nazariyasi, texnikasi asoslarini o‘rgatish bilan, ya’ni dastur mavzulari bilan cheklanib bo‘lmaydi. Aktyorlik mahorati sirlarini chuqur o‘zlashtirgan pedagog dars jarayonini o‘z hayotiy tajribasi, sinalgan ta’lim uslublari asosida olib borsa, o‘quv jarayoni qiziqarli, ta’sirli

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

tus olib, uning natijasi yanada samarali bo‘ladi. Talabada ijodiy kayfiyat uyg‘otish va bunga qay yo‘l bilan erishishni, birinchi navbatda, 5pedagog hal etadi. Bu uning bilimi, tajribasi, uslubi va ijodiy intuitsiyasiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonidagi eng samarali uslub - pedagogning o‘z o‘quvchilarining ijodiy tabiatiga yaqin, o‘ziga xos vazifa va mashqlami qo‘llashidir. Bu borada eng muhimi - ta’lim jarayonining qay uslubda olib borilishi emas, balki talabalarda aktyorlik mahoratini imkon qadar chuqur shakllantirish va bu yo‘lda samarali natijalarga erishishdir. Binobarin, 0 ‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov a’kidlab o‘tganidek, «biz o‘z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma’naviy erosimizni boyitish va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va madaniyatining yuksak ho‘qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir o‘lishimiz darkor». Sahna - muqaddas dargoh. San’at maktabiga qadam qo‘yayotgan har bir talabaning qalbida ana shu sahnaga muhabbat, hech bo‘lmasa, chuqur hurmat hissi nish urgan bo‘lishi kerak.

Pedagog esa ana shu muhabbat va hurmat poydevorini mustahkamlab, unga yangi sayqal, o‘zgacha o‘rinish berishga qodir bo‘lishi lozim. Albatta, aktyorlik mahorati maktabi alabalarining barchasini teatrda ishlashga majburlash mumkin emas. Bo‘lajak aktyorlarning ko‘pchiligi kino san’ati sohasini ma’qul ko‘rishi mumkin. Kino san’ati ham o‘ziga xos murakkab san’at. U aktyordan ma‘lum talablar asosida yuqori ahorat, bilim va iste’dodni talab etishi tabiiy. Binobarin, har ikkisi: teatr san’ati ham, kino san’ati ham aktyor ijodi bilan to‘liq. Teatr san’ati aktyordan qanchalar mas‘uliyatni talab qilsa, kino ham aktyorga ana shunday munosabatda bo‘ladi. To‘g‘ri, zamonaviy texnika, bir bora yaxshi ijro etilmagan rolni qayta dublda to‘g‘irlash kabi imkoniyatlar aktyorga birmuncha qulayliklar tug‘diradi. Bundan tashqari, kamera va bir qator texnikalar aktyoming ba’zi qusurlarini berkitishi mumkin. Ammo bundan kino san’atida har qanday diletant aktyor-aktrisalaming ijod qilishi mumkin degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. 6Aktyor, umuman, ijodkor, san’at olamiga oz boMsa-da taalluqli bo‘lar ekan, demak, undan o‘z sohasida mutaxassis darajasiga erishishi talab etiladi.

Aktyorlik mahorati maktabi aktyorlik ishtiyoqidagi yoshlami (albatta, muayyan tanlov asosida qabul qilingan talabalar) mahorat sirlaridan voqif etish, ulami chinakam aktyor darajasida tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi lozim. Talaba tomonidan o‘tilishi lozim boigan barcha pog‘onalaming har biri o‘ziga xos ravishda poydevor vazifasini o‘taydi. Ma’lumki, biror fanga bag‘ishlab ilmiy asar yaratish - murakkab vazifa. Ayniqsa, juda kam tadqiq etilgan, badiiy ijod psixologiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan aktyorlik mahorati bo‘yicha ilmiy asar yaratish ikki hissa murakkabroq. Mazkur darslik bugungi kunda teatr

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

maktablarida mavjud muammolami butkul hal etishga da’vo qilmaydi. Zero, zamonaviy san’atmaktablarida aktyorlik mahorati pedagogikasini rivojlantirish va undagi muammolami hal etmoq uchun ko‘plab nazariyotchi va amaliyotchi san’at ahllarining hamjihatlikdagi izlanishi, intilishlari talab etiladi. Mazkur darslik ko‘p yillik tajribalarimiz asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda magistrantlarga qabul imtihonlarida ishtirok etishlaridan boshlab, to talaba sahnada rol ijro etishigacha bo‘lgan davrda o‘quv jarayonida qanday ish olib borish kerakligi haqida tushunchalar beriladi. Bu esa magistrlaming kelgusidagi pedagogik faoliyatida muhim asos bo‘lib amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda nazariy bilimlarini amaliy jihatdan takomillashtirishga yordamchi vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anikst A. Tvorchestvo SHekspira M., 1963.
2. Xrestomatiya po istorii zapadno yevropeyskogo teatra. T. 1-2 /sost S. Mokulskiy / M., 1953, 1955 gg.
3. www.ziyo.uz electron kutubxonasi

WORDLY KNOWLEDGE